



YOSHLAR SIYOSATIDA O‘ZBEKISTON ARMIYASINING MUHIM O‘RNI HAMDA INTEGRATIV MEDIAMAKONDAGI IMIJI

Muallif: Omonqulov Ro‘ziqul Ma‘ruf o‘g‘li¹

Affiliyatsiya: XNU, Jurnalistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17570667>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada armiyaning integrativ mediamakondagi imidji, ya'ni zamonaviy axborot maydonida harbiy tuzilmalarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy qiyofasining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida media makon davlat xavfsizligi tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn nashrlar hamda raqamli kommunikatsiya vositalari orqali armiyaga nisbatan jamoatchilik fikrining shakllanishi mamlakat imidjini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Tadqiqotda armiyaning ijobiy imidjini yaratish va mustahkamlashda integrativ media strategiyalarining o'ri, PR-kommunikatsiyalar, axborot xavfsizligi, patriotizmni rivojlantirish hamda yoshlar ongida milliy armiyaga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tajribasi tahlil qilinib, O'zbekiston armiyasining mediamakonidagi hozirgi ko'rinishi, afzalliklari va muammolari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, armiya imidji, integrativ mediamakon, axborot siyosati, PR-strategiya, patriotizm, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, milliy xavfsizlik.

KIRISH

Global marketing tadqiqotlarini o'tkazuvchi "Ipsos" kompaniyasi 2022-yilda xalqaro so'rovnoma orqali odamlarning turli kasblarga nisbatan ishonch reytingini aniqlagan. 28 ta davlatda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, shifokorlar, olimlar, o'qituvchilar qatorida harbiylar eng ko'p ishoniladigan kasb egalari to'rtligida e'tirof etilgan¹.

2022-yil yakunlariga ko'ra, odamlarning harbiy xizmatchilarga bo'lgan "ishonch darajasi" (*mutlaq ishonadiganlarning umumiy nisbati*) 44 foizni tashkil etdi. E'tiborlisi, fuqarolari yurt posbonlariga eng ko'p ishonadigan davlatlar beshligida Hindiston (64 %), AQSh (64 %), Rossiya (59 %), Buyuk Britaniya (55 %), Avstraliya (53 %) qayd etilgan. Vatan himoyachilarining odamlar eng ko'p ishonadigan kasblar qatoridan o'rin olishida harbiy sohaga ixtisoslashgan media nihoyatda muhim o'rin tutadi va katta ta'sir ko'rsatadi. Harbiy jurnalistika eng rivojlangan mamlakatlar ham yuqorida nomi keltirilgan hududlar hissasiga to'g'ri kelishi tadqiqot davomida aniqlandi. Buning bosh sababi ularning harbiy nashrlarida barqaror rivojlanish maqsadi yo'lidagi axborot uzatish strategiyasi va integratsiyasi samarali yo'lga qo'yilgan.

1.Mamlakatimiz armiyasining integrativ mediamakondagi imiji

¹ Qarang: <https://www.ipsos.com/sites/default/files/ct/news/documents/2021-10/Global-trustworthiness-index-2021>. Murojaat vaqti: 1.11.2025. So'rovnoma o'tkazgan muassasa 1975-yili Fransiya poytaxtida tashkil etilgan bo'lib, dunyoda 3-o'rinda turuvchi eng katta tadqiqot kompaniyasi hisoblanadi.

O'zbekiston armiyasining integrativ mediamakondagi imijini tadqiq etishda qisman mazkur yetakchi mamlakatlardagi harbiy nashrlar kontentini tahlilga tortdik. Negaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi²ning **98-maqsadi** jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston armiyasi haqida xorijiy OAVda uzatilgan rasmiy axborotlarning aksariyati xalqaro harbiy hamkorlik munosabatlarining mustahkamlanib borayotganiga bag'ishlangan. Misol uchun, hamkorlikdagi amaliy o'quv mashg'ulotlari, xalqaro armiya o'yinlari va harbiy musobaqalarda o'zbek harbiylarining ishtiroki, salohiyati, birdamligi va muvaffaqiyati ijobiy baholangan. Jumladan, AQSh markaziy qo'mondonligi muassisligidagi "Unipath" jurnalining 2021-yil 21-dekabrda chop etilgan 11-soni "O'zbeklar harbiy hamkorlikni davom ettirmoqda" sarlavhali maqola bilan boshlanadi (*1-rasm*). Jami 68 betdan iborat ushbu harbiy nashr o'rganilgan sonining 6 sahifasi O'zbekiston armiyasiga bag'ishlangan.




1-rasm. "Unipath" jurnali. 2021-yil 11-son.

Maqolada data-jurnalistika imkoniyatlari hamda o'zbek ofitserlarining intervyularidan unumli foydalanilgan. Jurnalning dizayn kontsepsiyasida ranglar uyg'unligi, matn va tasvir proporsiyasiga alohida urg'u berilgan. Mundarijada turli mamlakatlar armiyasi va harbiy hayoti haqida maqolalarni ko'rish mumkin. Mazkur nashrning bosma va onlayn versiyasi mavjud bo'lib, onlayn versiyasi ingliz, rus, arab, pushtu, dariy kabi tillarda ommaga axborot uzatadi. 68 betlik jurnalning elektron versiyasi onlayn varaqlab ko'rish yoki istalgan sahifasini yirik formatda o'qishga qulaylashtirilgan.

O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi strategik hamkorlikning yangi davri 2019-yildan boshlandi. Tomonlarning hamkorlikdagi qo'shma o'quv mashg'ulotlari va do'stlik musobaqalari shundan dalolat beradi. Ikki mamlakat o'rtasidagi harbiy hamkorlik kuchayib borar ekan, 2019-yil 12–15-dekabr kunlari Amerika Qo'shma Shtatlarining "Kemp MakKeyn" bazasida Mississipi milliy

² Prezident Sh.Mirziyoyevning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>. Murojaat vaqti: 1.11.2025.

gvardiyasi tomonidan o'tkazilgan qo'shma mashg'ulotlarda o'zbekistonlik askarlarning ishtiroki alohida e'tiborga loyiq. Qo'shma mashg'ulotlar ikki mamlakat harbiylari o'rtasida 2019-yil boshidan beri o'tkazilgan bir qator treninglar, uchrashuvlar va muzokaralar doirasida tashkil etilgan (2-rasm).



2-rasm³. "Unipath" jurnali. 2021-yil 2-son.

Fotosuratda qanday jarayon aks ettirilgani haqida "O'zbek maxsus operatsiya kuchlari zobiti o'z missiyasini AQShlik hamkasbi bilan ado etmoqda", deya yuqori chap burchagida izoh berilgan. E'tiborlisi, suratdagi zobitning yuzi mozaika bilan bektilgan. Bu bilan mazkur harbiy nashr maxsus operatsiya kuchlari zobiti rekvizitlarini ommaga oshkor etmaslik yuzasidan xalqaro talablarga qat'iy rioya qilgan.

Bundan tashqari, "Unipath" jurnalida chiqqan "Stability through cooperation" ("Hamkorlik orqali barqarorlik") sarlavhali maqolada O'zbekiston armiyasi haqida alohida o'rin ajratilgan⁴. Unda AQSh markaziy qo'mondonligi tomonidan Montana shtatidagi "Fort Harrison" poligonida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston, Mo'g'uliston, Pokiston va Amerika qo'shinlari ishtirokida o'tkazilgan "Hududiy hamkorlik – 2021" o'quv mashg'ulotlari haqida so'z boradi. Maqolada muallifning quyidagi talqini dastlabki qismida asli noto'g'ri munosabat beriladi: "Haqiqiy dunyoda konstitutsiyaviy jihatdan ko'pmillatli tinchlikparvar kuchlarga qo'shilish imkoniyati cheklangan o'zbek qo'shinlari mashg'ulotlarda barqarorlik missiyasining umumiy maqsadlariga sodiq qolgan mustaqil pozitsiyasini saqlab qoldi". Bunday mulohaza o'quvchida mamlakatimiz haqida salbiy taassurot qoldiradi.

O'zbekiston armiyasi haqida integrativ mediamakondagi imijini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarning o'z vaqtida berib borilishini ta'minlash yolg'on va destruktiv ma'lumotlar tarqalishining oldini oladi. Mazkur yo'nalishdagi kam sonli materiallardan biri 2021-yili o'zbek askarlari AQShda o'tgan musobaqa sovrindorlari bo'lishgani haqida «Facebook» tarmog'ida berilgan axborotdir. Unda O'zbekiston Qurolli Kuchlari maxsus operatsiyalar batalyonining ikki serjanti "MakKeyn" bazasida o'tgan "Eng yaxshi

³ John Alderman. Uzbeks pursue military cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 11. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/

⁴ Michael Touchette. Stability through cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 33. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/

jangchi" musobaqasida ishtirok etib, vataniga sovrin bilan qaytgani haqida xabar berilgan. Katta serjant Sardor Mamarasulov "Eng yaxshi xorijlik kichik qo'mondon", kichik serjant Muhriddin Ochilov esa "Eng yaxshi xorijlik askar" mukofotiga sazovor bo'ldi, deyiladi Mississipi milliy gvardiyasining "Facebook" sahifasida⁵. Ushbu xabarga 2021-yil 6-dekabr kuni musobaqa doirasida O'zbekiston mudofaa vazirligi tomonidan Florida shtatining Tampa shahridagi AQSh harbiy havo kuchlari bazasida namoyish qilingan o'zbek milliy taomlari ko'rgazmasidan suratlar ilova qilingan. Ushbu tadbir yuzasidan O'zbekiston Mudofaa vazirligi axboroti mudofaa.uz saytida yoritilgan: "Musobaqa doirasida O'zbekiston vakillari Tampa (*Florida*) shahridagi AQSh harbiy-havo kuchlari bazasida har yili o'tkaziladigan "Xalqaro kecha" tadbirida ishtirok etdilar. O'zbek harbiylari tashrifchilar uchun milliy taomlar hozirlab, o'z milliy liboslari, urf-odat va an'analarini namoyish etdilar. "Ushbu tadbir tomonlarning butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida birgalikda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qat'iyatini yana bir karra tasdiqladi".

Oradan bir yil o'tib, ya'ni "Eng yaxshi jangchi" musobaqasining 2022-yilda o'tkazilgan sinovlari haqida esa markaziy qo'mondonlik jurnali endi "AQSh o'zbekistonlik ishtirokchilarni olqishlaydi" sarlavhali maqola orqali xolis axborot e'lon qildi. "Musobaqa davomida o'zbekistonlik va amerikalik askarlar birgalikda murakkab sinovlardan o'tdilar. Tadbirning ilk kuni to'siqlardan o'tish mashqlari bilan boshlandi. Musobaqaning ikkinchi kuni jismoniy mashqlar ishtirokchilarning kuchlarini sinovdan o'tkazdi. Shu bilan birga, askarlar zobitlardan iborat kuzatuvchilar oldida harbiy-nazariy imtihondan o'tdilar.

Musobaqaning uchinchi kuni eng og'iri bo'ldi. Ishtirokchilar kunni 12 mil masofali yurish marshi bilan boshladilar, undan so'ng AQSh armiyasining o'q otish mahorati bo'yicha mashqlari o'tkazildi. Bunda "askarlar nishonga qarab harakatlanish, birinchi yordam ko'rsatish va nishonga turli qurollar bilan o'q otish bo'yicha real mashqlarni bajarishdi. Yakunda amerikaliklardan serjant Mitchell Skofild va katta uchuvchi Bo Uilcher mukofotga loyiq deb topildi. Ular ham xuddi o'zbekistonlik safdoshlari kabi sovrin olishdi", deyiladi markaziy qo'mondonlik jurnalida.

Ushbu axborot Mississipi milliy gvardiyasining "Facebook" sahifasida ham e'lon qilingach, amerikalik tarmoq foydalanuvchilari ushbu platformada o'zbek askarlarining musobaqadagi ishtirokini olqishlab, o'zlarining iliq munosabatlarini yozib qoldirgan: "Juda zo'r! Shtatimiz hamkorlik dasturi ishtirokchisi bo'lgan O'zbekiston bilan munosabatlarimizdagi faol yutuqlarni ko'rishdan mamnunman", deb yozgan "Facebook" foydalanuvchisi Brendon Teddi Tedford.

"O'zbekistonlik musobaqa ishtirokchilardan faxrlanaman! Ular misli ko'rilmagan ishni amalga oshirdilar!!!", deb yozgan tarmoqning yana bir foydalanuvchisi Amanda Dillon Uilleret.

"Bu muvaffaqiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining professional tayyorgarlikka ega, chiniquqan, jismoniy holati a'lo va va istalgan vaziyatda musobaqalasha olishini yana bir karra isbotlaydi", deyiladi mudofaa.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Mudofaa vazirligi axborotida. Vazirlikka ko'ra, taqdirlangan ikki serjant Mamarasulov va Ochilov AQSh harbiy qurollari, jumladan, Beretta to'pponchasi, M-4 avtomati va M-19 pulemyotini qismlarga ajratib, qaytadan yig'ishga muvaffaq bo'ldilar. Qo'shma mashg'ulotlar davomida O'zbekiston va Mississipi shtati o'rtasidagi

⁵ <https://www.facebook.com/nationalguardMS>. Date of seen: 1.11.2025.

aloqalarning rivojlanib borayotgani ta'kidlangan, bunga AQSh va O'zbekiston delegatsiyalarining 2019-yildagi uchrashuvi chog'ida erishilgan.

Haqiqatan ham mustaqillik yillarida O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi harbiy hamkorlik keyingi uch yilda muntazamlik tusini oldi. 2019-yil yanvar oyida O'zbekiston maxsus qo'shinlari Mississippi milliy gvardiyasi tomonidan o'tkazilgan mashqlarda ishtirok etdi. AQShda o'zbek harbiylari ishtirokida ilk marotaba o'tkazilgan bu mashg'ulotlar "tarixiy" deb nomlandi. 2019-yil 14-may kuni Mississippi shtati sobiq gubernatori Fil Brayant va Mississippi milliy gvardiyasi qo'mondoni Jenson Boylz O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ular O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasida bo'lib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdilar. Uchrashuv chog'ida Mirziyoyev ushbu tashrif O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi davri boshlanganidan dalolat berishini ta'kidladi.

"Amerika Qo'shma Shtatlari O'zbekistonga ishonadi. Mamlakatingiz faol tashqi siyosat olib bormoqda va biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yerda yangicha erkinlik ruhi hukm surmoqda", dedi Brayant tashrifi davomida O'zbekiston milliy axborot agentligiga (*O'ZA*) bergan intervyusida.

Pandemiyadan keyin, 2021-yil sentyabr oyida O'zbekistonga Mississippi milliy gvardiyasi podpolkovnigi Bred Xou boshchiligidagi AQSh harbiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. AQSh va O'zbekiston uchuvchilari qo'shma mashqlar o'tkazishdi va Toshkent yaqinidagi garnizonda vertolyot orqali parvozlarni amalga oshirdilar.

Yil oxirida ko'plab xorijiy ommaviy axborot vositalari O'zbekistondagi islohotlar xususida qator maqolalar chop etdi. Ularda O'zbekiston dunyoga o'z eshiklarini ochayotgani va endi "yopiq davlat" emasligiga alohida urg'u berilgan. O'zbekiston va AQSh askarlarining qo'shma harakatlari buning yaqqol isbotidir. Ikki mamlakat askarlarining hamkorlikdagi yig'inlari do'stona aloqalarni rivojlantirishga yordam berdi. Ammo shunga qaramay, hozir mavjud imkoniyatlar sharoitida milliy axborot vositalarimiz, shu jumladan, tashqi axborot-kommunikatsiya vositalarimiz xalqaro mediamonopoliyalarga raqobatchi kuchga aylanish darajasida emas. Mediada mamlakat imijini chuqur tadqiq qilgan olim, filologiya fanlari doktori Beruniy Alimovning bu haqida: "Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, MDH va Sharq mamlakatlari, xususan, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Hindiston, Turkiya, Misr, BAA kabi davlatlarning ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonga doir xabarlar va maqolalar tez-tez e'lon qilib borilmoqda. Biroq G'arb davlatlari, xususan, AQSh va Buyuk Britaniya media makonida O'zbekistonga oid salmoqli tahliliy chiqishlar yetarli darajada emas"⁶, degan xulosani bergan. O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi islohotlar haqidagi tahliliy chiqishlarni ko'paytirish uchun esa harbiy nashrlar bilan bir qatorda "Dunyo" axborot agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi sahifalarida milliy armiya nufuzini oshirishga qaratilgan targ'ibot materiallarini tayyorlash va ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Media bilan munosabat o'rnatishga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, shuningdek, media bilan aloqa strategiyasi hamkorlikda qayta ko'rib chiqilsa, albatta yaxshi natija beradi. Ilgari harbiy muxbirlar, hatto muharrirlar voqealardan maxfiy ravishda xabardor qilingan. Garchi bu tizim ommaviy axborot vositalarini manipulyatsiya qilish va axborotga egalik qilish huquqini o'zida saqlab qolish uchun

⁶ Alimov B. Yangi O'zbekiston imiji xalqaro maydonda qanday yuksaladi? // Yangi O'zbekiston, 2022. № 71. – B. 5.

yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, bu hozirgi tezkor, tig'iz va keskin zamonaga solishtirilganda ancha samarasizdir.

OAV bilan ishlash va kommunikatsiya ko'nikmalarini o'zida shakllantirish ofitserlar tayyorlash kurslarining bir qismiga aylanishi kerak. Ofitserlar ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish usullaridan xabardor bo'lishi kerak. Masalan, yozuvli yoki ovozli axborot almashish ko'nikmasi ularning barchasida shakllangan bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "2022-2026-yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>. Murojaat vaqti: 1.11.2025.

2. Alimov B. Yangi O'zbekiston imiji xalqaro maydonda qanday yuksaladi? // Yangi O'zbekiston, 2022. № 71. – B. 5.

3. John Alderman. Uzbeks pursue military cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 11. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/

4. Michael Touchette. Stability through cooperation // Unipath, Volume 11, 2021. – P. 33. https://unipath-magazine.com/en-v11n2_2022/

5. <https://www.ipsos.com/sites/default/files/ct/news/documents/2021-10/Global-trustworthiness-index-2021>. Murojaat vaqti: 1.11.2025.

6. <https://www.facebook.com/nationalguardMS>. Murojaat vaqti: 1.11.2025.

7. https://en.wikipedia.org/wiki/Inter-Services_Public_Relations. Murojaat vaqti: 1.11.2025.

8. Газетов В.И. Служба PR в вооружённых силах США // Власть, № 7, 2009. – С. 148.

